

RAQAMLI JAMIYATDA SOTSIAL STRUKTURA

Yuldasheva Zulayho Ravshan qizi

yuldashevazuleyha3@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
psixologiya va sotsiologiya kafedrası sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sotsial struktura tushunchasi, uning jamiyatdagi o'rni, tarkibiy elementlari hamda ijtimoiy tizimda egallagan funksiyalari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sotsial tabaqalanish, stratifikatsiya hamda sotsial institutlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati bo'yicha yetakchi sotsiologlar qarashlari solishtiriladi. Maqola xulosa qismida sotsial strukturaning zamonaviy jamiyatni tushunishdagi nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: sotsial struktura, jamiyat, ijtimoiy guruh, stratifikatsiya, institut.

SOCIAL STRUCTURE IN MODERN SOCIETY

Abstract. This article analyzes the concept of social structure, its components and functions in modern society. The research examines social stratification, social groups and social institutions based on the opinions of classical and contemporary sociologists. The conclusion highlights the importance of social structure as a fundamental analytical category in understanding social systems.

Keywords: social structure, society, social group, stratification, institution.

Аннотация. В статье анализируются понятие социальной структуры, её элементы и функции в современном обществе. Исследование рассматривает социальную стратификацию, социальные группы и институты на основе мнений классических и современных социологов.

Ключевые слова: социальная структура, общество, социальная группа, стратификация, институт.

KIRISH

Jamiyat o'z tabiatiga ko'ra murakkab ijtimoiy tizim bo'lib, unda turli guruhlar, institutlar, qadriyatlar va munosabatlar mavjud. Ushbu tizimning ichki tuzilishini ifodalovchi asosiy nazariy kategoriya "sotsial struktura" tushunchasi hisoblanadi. Mazkur tushuncha jamiyatning tashkil topishi, boshqarilishi va rivojlanish jarayonlarini izohlashda juda muhim o'rin tutadi¹.

Sotsial struktura haqida klassik sotsiologiya vakillari — E. Dyurkgeym, M. Veber, T. Parsonslar o'z asarlarida jamiyatning ichki tashkilotini turlicha izohlaganlar. Masalan, Parsons sotsial struktura jamiyatning barqarorligini

ta'minlovchi funksional tizimdir deb ta'riflaydi². Weber esa sotsial struktura tushunchasini iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy darajadagi farqlanish jarayonlari bilan bog'lab tahlil qilgan³.

"Jamiyat tarkibi faqat aholining yig'indisi emas, balki ma'lum tartibga asoslangan ijtimoiy birliklardan iborat tizimdir"⁴. Shu sababli sotsial struktura jamiyatni oddiy "aholi" tushunchasidan farqlashga imkon beradi va ijtimoiy tizimning ichki mexanizmlarini o'rganish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Bugungi globallashuv davrida jamiyatdagi o'zgarishlar, migratsiya jarayonlari, iqtisodiy notenglik, madaniy xilma-xillik kabi omillar sotsial strukturaning moslashuvchanligini talab qilmoqda. Bu esa mazkur tushunchaning nazariy tahlilini yanada ahamiyatli qilmoqda⁵.

Sotsial struktura zamonaviy sotsiologiyada eng asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, jamiyatning ichki tashkil etilgan elementlar tizimini anglatadi. Dastlab ushbu tushuncha XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arb sotsiologiyasi doirasida shakllangan bo'lib, uning ilk nazariy asoslari E. Dyurkgeym, M. Veber, G. Zimmel, T. Parsons kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.¹

Dyurkgeymning talqiniga ko'ra, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi "organik birdamlik" tamoyiliga asoslanadi, ya'ni har bir ijtimoiy birlik umumiy tizimning muayyan funksiyasini bajaradi. U jamiyatni biologik organizmga qiyoslab, ijtimoiy institutlar – oila, din, siyosat, ta'lim kabi tizimlarni jamiyatning "a'zolari" sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv funksionalizmning dastlabki asosini tashkil etgan.

M. Veber esa ijtimoiy struktura tushunchasini iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy maqom farqlanishlari bilan bog'ladi. Uning fikricha, jamiyat "sinflar", "partiyalar" va "status guruhlar"dan iborat tizimdir. Weberga ko'ra, iqtisodiy farqlar sinflarni, siyosiy ta'sir partiyalarni, ijtimoiy nufuz esa maqom guruhlarini shakllantiradi. Ushbu yondashuv sotsial stratifikatsiya nazariyasining metodologik asosini yaratdi.

T. Parsons sotsial struktura tushunchasiga funksional jihatdan yondashib, jamiyatni o'zaro bog'langan tizimlarning yaxlitligi sifatida izohlagan. Uning fikricha, jamiyatning har bir qismi ma'lum funksiyani bajarmasa, ijtimoiy tartib buziladi. Parsons "tizim", "funksiya", "tuzilma", "me'yor" tushunchalarini nazariy asos sifatida qo'llab, ijtimoiy tizimning barqarorligini me'yoriy tamoyillar orqali ta'riflagan.

¹ Omonov Q. *Sotsiologiya*. Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 15-bet.

² O'sha asar – 22-bet.

³ Giddens A. *Sociology*. Polity Press, 2013. – 54-bet.

⁴ Giddens A. *The Constitution of Society*. Cambridge, 1984. – 39-bet.

⁵ Parsons T. *The Social System*. Routledge, 1991. – 47-bet.

⁶ Weber M. *Economy and Society*. California Press, 2004. – 231-bet.

Zamonaviy sotsiologiyada esa sotsial struktura tushunchasi nafaqat qatlamlar yoki institutlar tizimi sifatida, balki ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy rollar, kommunikativ jarayonlar va madaniy amaliyotlarning umumiy tizimi sifatida ham talqin qilinadi. Masalan, A. Giddens “strukturatsiya nazariyasi”da sotsial struktura jamiyat tomonidan yaratiladigan va ayni damda jamiyatning o‘zini shakllantiradigan tizim deb ta’riflaydi. Ya’ni, jamiyat struktura orqali odamlarni boshqaradi, lekin odamlar ham o‘z harakatlari orqali strukturani qayta yaratadilar.

Sotsial struktura tushunchasini kengroq talqin qilgan olimlardan biri P. Shtompka bo‘lib, u sotsial struktura “ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar, institutlar, rollar va munosabatlarning o‘zaro bog‘lanishidan iborat murakkab tizim” ekanini qayd etadi. Bunday yondashuv strukturani faqat tashkiliy element emas, balki madaniy fenomen sifatida ham tushunishga olib keladi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda sotsial struktura “dinamik tuzilma” sifatida ham tahlil qilinadi. Chunki globallashuv, migratsiya, gender tengsizlik, urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot kabi jarayonlar sotsial strukturaning doimiy ravishda o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois “zamonaviy jamiyatda sotsial struktura alohida statik tizim emas, balki harakatdagi ijtimoiy mexanizmdir” degan ilmiy fikr shakllangan.

Nazariy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sotsial struktura tushunchasi bir necha asosiy yondashuvlarga ega:

- funksional yondashuv
- konflikt yondashuv
- interaksionistik yondashuv
- strukturalizm
- poststrukturalizm
- strukturatsiya nazariyasi

Har bir yondashuv strukturaning turli jihatlarini ochib beradi, shu sababli sotsial struktura ko‘p qatlamli ilmiy kategoriya sifatida qaraladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, sotsial struktura jamiyatning umumiy ijtimoiy sxemasini ifodalaydi va ijtimoiy tizimni tushunish uchun asosiy nazariy birliklardan biri hisoblanadi.

Sotsial struktura murakkab ijtimoiy tizim sifatida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan turli elementlardan tashkil topgan. Ushbu elementlar jamiyatning ichki tuzilishini, undagi ijtimoiy o‘rin va rollarni aniqlaydi. Nazariy adabiyotlarda sotsial strukturaning tarkibiy qismlari turlicha talqin qilingan bo‘lsada, ularning eng umumlashgan ko‘rinishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: **ijtimoiy guruhlar, sotsial qatlamlar, sinflar, institutlar, rollar, statuslar va ijtimoiy tashkilotlar.**

Ijtimoiy guruh sotsial strukturaning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Guruhlar real ijtimoiy munosabatlar asosida shakllanadi hamda jamiyatdagi

ijtimoiy hayotni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ritzerning ta'rifiga ko'ra, ijtimoiy guruh – “ma'lum maqsad va manfaat asosidagi shaxslarning o'zaro o'rnatilgan ijtimoiy aloqalar majmuasi”dir. Guruhlarning katta (millat, sinf, qatlam) va kichik (oilalar, jamoalar, mehnat jamoasi) shakllari mavjud bo'lib, ularning har biri ijtimoiy tizimning muayyan funksiyalarini bajaradi.

Ijtimoiy guruh sotsial strukturaning asosiy elementi bo'lib, umumiy manfaat, faoliyat, qadriyat yoki belgilar asosida shakllangan kishilar yig'indisidir. G. Zimmelning fikricha, guruhlar nafaqat sotsial tuzilmaning bir qismi, balki jamiyatning dinamik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy mexanizmdir⁷.

Ijtimoiy guruhlar:

- **kichik guruhlar** (oilalar, do'stlar guruhi),
- **o'rta guruhlar** (mehnat jamoalari),
- **katta guruhlar** (millat, sinf, tabaqalar) ko'rinishida bo'ladi.

Ular jamiyatdagi “joylashuvi” ularning qanday resurslarga ega ekani, qanday funksiyani bajarishi va qanday ijtimoiy vaziyatda turganiga bog'liq. M. Veberning fikricha, guruhlar joylashuvi ko'p o'lchovli bo'lib, iqtisodiy, siyosiy va status omillari bilan belgilanadi⁸.

Sotsial strukturaning eng muhim tarkibiy qismi – **ijtimoiy qatlamlar**. Qatlamlar jamiyat a'zolarining daromad, ta'lim, mavqe, obro' kabi ko'rsatkichlar bo'yicha farqlanishi natijasida shakllanadi. P. Sorokin stratifikatsiyani “jamiyatning vertikal tabaqalanishi” deb ta'riflab, u iqtisodiy, siyosiy va kasbiy mezonlar asosida yuzaga kelishini ko'rsatadi⁹.

Stratifikatsiya tizimi jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning mavjudligini, resurslarning notekis taqsimlanishini anglatadi. Bu tizimda yuqori, o'rta va quyi qatlamlar mavjud bo'lib, har biri jamiyatning umumiy strukturasida muayyan o'rin egallaydi.

Zamonaviy o'zbek jamiyatida o'rta qatlamning kengayishi, ta'lim va xususiy sektor rivoji bilan bog'liq holda, strukturaviy o'zgarishlarning asosiy ko'rinishi sifatida baholanmoqda. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi¹⁰.

Ijtimoiy institutlar – jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi barqaror tizimlardir. Oilalar, ta'lim, siyosat, iqtisod, din kabi institutlar sotsial strukturaning “tayanch ustunlari” bo'lib, ular jamiyatning tashkil etilgan holatda ishlashini ta'minlaydi.

T. Parsonsning fikricha, institutlar sotsial tizimning asosiy ehtiyojlari – moslashuv, maqsadga erishish, integratsiya va barqarorlikni ta'minlash funksiyalarini bajaradi¹¹.

Bu institutlar orqali ijtimoiy rollar taqsimlanadi. Har bir rol – jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yori. Shaxslar ushbu rollarni bajarish orqali sotsial strukturaning ishlashida bevosita ishtirok etadilar.

Sotsial strukturaning muhim jihati – uning dinamikligi, ya’ni ijtimoiy harakatchanlikning mavjudligidir. Ijtimoiy harakatchanlik – shaxs yoki guruhning bir qatlamdan boshqasiga o’tishi jarayonidir. P. Sorokin vertikal va gorizontal harakatchanlikni ajratgan, bu harakat jamiyatning ochiqligi yoki yopiq ekanligini ko’rsatadi.

Sotsial joylashuv esa guruh yoki shaxsning strukturadagi real o’rnini bildiradi. Jamiyatning ochiq yoki yopiq bo’lishi bu joylashuvning o’zgarish imkoniyatini belgilaydi.

Har bir jamiyatda ma’lum darajada **ierarxiya** mavjud. Ierarxiya – bu guruh yoki qatlamlarning yuqoridan pastga tartiblangan tizimi bo’lib, u resurslar, vakolatlar va imkoniyatlarning notekis taqsimlanishidan kelib chiqadi.

M. Mannning fikricha, ierarxiya har qanday jamiyatning tabiiy xususiyati bo’lib, kuch, iqtisod, mafkura va siyosiy nazoratning turli darajalarida namoyon bo’ladi.

Ierarxiya strukturaning barqarorligini ham, ziddiyatlarini ham shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy sotsiologiyada ierarxiya va tengsizlik masalalari markaziy mavzulardan biri bo’lib qolmoqda.

Zamonaviy jamiyatda sotsial struktura o’zgarishi global jarayonlar, iqtisodiy modernizatsiya, raqamli texnologiyalar, urbanizatsiya hamda migratsiya oqibatida yanada murakkablashib bormoqda. Ushbu bo’limda sotsial strukturadagi asosiy tendensiyalar, ularning jamiyatdagi “joylashuv”ga ta’siri va o’zbek jamiyatida kuzatilayotgan strukturaviy o’zgarishlar ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Globalizatsiya jarayoni sotsial struktura tarkibida sezilarli o’zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. A. Giddens globalizatsiyani “dunyo makonidagi ijtimoiy aloqalarning kuchayishi va o’zaro bog’liqlikning oshishi” sifatida izohlaydi. Bu jarayon mehnat bozori, bilim sohalari, migratsiya oqimlari va ijtimoiy rollarning qayta taqsimlanishiga olib keladi.

Natijada jamiyatda yangi professionallar, transmilliy mehnatkashlar, global iste’molchilar va yuqori texnologiyalar bilan shug’ullanuvchi ijtimoiy guruhlar paydo bo’lmoqda. Bu guruhlarining sotsial struktura ichidagi joylashuvi ham yangilanib, iqtisodiy va madaniy kapitali yuqori bo’lgan qatlamlar kuchaymoqda.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sotsial strukturaning eng jadal o’zgarayotgan segmentlaridan biridir. M. Kastels “axborot jamiyati” tushunchasini kiritib, raqamli iqtisodiyot shakllanishi bilan jamiyatda yangi ijtimoiy qatlam – **texnologik elita (knowledge workers)** paydo bo’lganini ta’kidlaydi.

Bugungi kunda sotsial struktura quyidagi yangi kategoriyalar bilan to’ldirilmoqda:

- IT-mutaxassislar;
- frilanserlar;

- blogerlar va kontent ishlab chiqaruvchilar;
- startup tadbirkorlari;
- raqamli iste'molchilar;
- masofaviy mehnat qiluvchi guruhlar.

Ushbu qatlamlar jamiyatda yuqori harakatchanlik imkoniyatiga ega bo'lgan, iqtisodiy va intellektual resurslarga tayanadigan guruhlardir. Bu esa strukturaning klassik shakllanishidan keskin farq qiladi.

Urbanizatsiya jarayoni sotsial strukturaning joylashuvi va shakllanishida muhim rol o'ynaydi. S. Zukinning fikriga ko'ra, shaharlar iqtisodiy kuch, madaniy kapital va innovatsiyalar markazi bo'lib, ular sotsial guruhlar o'rtasidagi farqlanishni yanada chuqurlashtiradi.

Migratsiya esa jamiyatda yangi qatlamlar, yangi etnik guruhlar, yangi iqtisodiy segmentlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda tashqi mehnat migratsiyasi natijasida "remitens oluvchi oilalar", "chet el tajribasiga ega yoshlar", "moslashuvchan migratsion guruhlar" kabi segmentlar shakllanmoqda.

O'zbekiston jamiyatida oxirgi 10–15 yil ichida bir qator sezilarli strukturaviy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan:

- o'rta sinfnining kengayishi;
- xususiy sektorning yuksalishi;
- yangi kasb-hunarlar paydo bo'lishi;
- yoshlar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi;
- urbanizatsiya sur'atlarining ortishi;
- ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy faollashuvi.

A. Jo'rayevning fikricha, iqtisodiy liberallashtirish O'zbekistonda o'rta qatlamning mustahkamlanishiga va sotsial harakatchanlikning oshishiga olib kelgan.

Bundan tashqari, ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida intellektual kapitalga ega yoshlarning sotsial struktura ichidagi mavqei kuchaymoqda. Bu holat jamiyatning umumiy barqarorligi va modernizatsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamonaviy sotsial strukturada ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda yangi ziddiyatlar ham kuzatiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- daromad tengsizligining ortishi;
- raqamli tafovut (digital divide);
- shahar va qishloq imkoniyatlari o'rtasidagi farq;
- gender tengsizligi unsurlarining saqlanishi;
- ta'lim resurslariga notekis kirish imkoniyati.

T. Piketti zamonaviy jamiyatdagi daromad va boylikning notekis taqsimlanishi tobora kuchayib borayotganini ta'kidlab, bu jarayon sotsial strukturaning yangi konfliktlarini yuzaga keltirayotganini ko'rsatgan.

Bu ziddiyatlar strukturaviy harakatlar, yangi guruhlarining shakllanishi, ijtimoiy noroziliklar va ierarxiyaning qayta taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois zamonaviy davlatlar sotsial siyosat orqali strukturaviy barqarorlikni ta'minlashga qaror tutmoqda.²

Xulosa. Ushbu maqolada sotsial struktura tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va jamiyatdagi joylashuvi tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

1. **Sotsial struktura** jamiyatning ichki tartibini, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi va barqaror ijtimoiy tizimni ta'minlaydi.

2. Klassik sotsiologlar (O. Kont, E. Dyurkgeym, M. Veber, K. Marks, T. Parsons) nazariy yondashuvlari sotsial strukturaning funksional, konfliktli va ko'p o'lchovli tabiatini ochib beradi.

3. Sotsial guruhlar, qatlamlar, ijtimoiy institutlar va rollar jamiyat ichidagi resurslar va vakolatlarning ierarxik taqsimotini belgilaydi.

4. Zamonaviy jamiyatda sotsial struktura globalizatsiya, raqamli texnologiyalar, urbanizatsiya va migratsiya oqibatida dinamik xarakterga ega bo'lib, yangi ijtimoiy qatlamlar va guruhlar paydo bo'lmoqda.

5. O'zbekiston misolida oxirgi yillarda o'rta sinfning kengayishi, yoshlar va ayollarning ijtimoiy faollashuvi, xususiy sektorning rivojlanishi sotsial harakatchanlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

6. Shu bilan birga, daromad tengsizligi, shahar-qishloq tafovuti, gender masalalari va raqamli tafovut kabi yangi ziddiyatlar strukturaning barqarorligi va jamiyat siyosatiga ta'sir qilmoqda.

Natijada, sotsial struktura jamiyatni tushunish va uning barqaror rivojlanishini tahlil qilishda asosiy ilmiy kategoriya ekanligi tasdiqlandi. Shu bois ijtimoiy tadqiqotlar, davlat siyosati va ta'lim sohasida strukturaviy yondashuvlarni hisobga olish dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kont O. *Pozitiv falsafa kursi*. — Parij, 1830.
2. Dyurkgeym E. *Mehnat taqsimoti haqida*. — Parij, 1893.
3. Weber M. *Economy and Society*. — Berkeley: University of California Press, 1978.
4. Marks K. *Kapital*. — Berlin, 1867.

Giddens A. *The Consequences of Modernity*. — Stanford University Press, 1990.

5. Parsons T. *The Social System*. — Glencoe: Free Press, 1951.
6. Giddens A. *The Constitution of Society*. — Cambridge, 1984.
7. Simmel G. *The Sociology of Georg Simmel*. — New York: Free Press, 1950.
8. Sorokin P. *Social and Cultural Mobility*. — New York: Free Press, 1959.
9. Abdullaev Q. *O'zbek jamiyatida o'rta qatlam shakllanishi*. — Toshkent: Fan, 2018.
10. Held D., McGrew A. *Globalization Theory*. — Polity Press, 2007.
11. Castells M. *The Rise of the Network Society*. — Wiley-Blackwell, 2010.
12. Tapscott D. *Digital Economy*. — New York: McGraw-Hill, 2014.
13. Zukin S. *Naked City: The Death and Life of Authentic Urban Places*. — Oxford University Press, 2010.